

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası

# REFERAT

Theme: JON MILTON HAYOTI VA IJODIY  
FAOLIYATI

Done by: Qambarov X.

Checked by: Qo'ldoshev O'.

# Mavzu: JON MILTON HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI

## Reja:

- 1: Jon Miton hayoti yo'li
- 2: Jon Milton ijodiy faoliyati haqida
- 3: Jon Miltonning “Yo’qotilgan Jannat” Poemasi haqida
- 4: “Yo’qotilgan jannat” asarining mazmuni

Jon Milton XVII asrda yashab ijod etgan yetuk yozuvchilardandir. U 1608 yili 12-sentabr kuni Londonda o'ziga to'q notarius oilasida dunyoga keladi. Uning yoshlik yillari og'ir kechmagan. Uning otasi John Milton hamda onasi Sara Jafferiylar Miltonni juda yaxshi ko'rganlar hamda uning tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib, odobli, tarbiyali qilib o'stirganlar.

Jon Miltonning o'qishga bo'lgan qiziqishi tufayli 16 yoshida o'z bilimlariga tayanib Kembridj universitetiga o'qishga topshiradi hamda imtihonlardan a'lo baholar bilan o'qishga qabul qilinadi. U umrining yetti yilini universitetda o'qishga bag'ishlaydi. Shu orada bir yil o'qituvchilari bilan kelishmovchiliklar tufayli o'qishdan haydaladi. Miltonning universitetda o'qishi yana qayta tiklangach u yetuk san'at magistiri darajasiga yetishadi. U universitetni tugatgandan so'ng ham o'qishini to'xtatib qo'ymasdan mustaqil diniy dunyoviy bilimlarni egallaydi[9, b.98].

XVII asr G'arbiy Yevropa adabiyotida Jon Milton, Kornil, Rasin, Moler, Lope de Vega, Kaldiron kabi yozuvchilarni yetishtirdi. Jon Milton Londonda dunyoga kelgan. Miltonning "Komus" nomli lirik asari his-tuyg'u bilan aql-idrok o'rtasida uyg'unlik bo'lishi kerakligi haqidagi fikr yotadi. Milton "Yo'qotilgan jannat", "Topilgan jannat", "Samson-kurashchi" kabi tragediyalarini yaratdi.

Jon Milton yashab ijod etgan davrlarda klassitizm adabiyoti gullagan davr edi. Klassizmning asosiy qonuniyatlaridan biri, tabiatga taqlid qilish turmushni real tasvirlashdan iborat. Bu oqimning yirik nazariyotchisi Bualo "Poeziya san'ati" degan asarida yaramas tabiatga voqelikni qupol tomonlarga emas, faqat go'zal tabiatga taqlid qilishga chaqiradi. Klassizm nazariyasi bo'yicha adabiy janrlar yuksak tragediya, epos qasida va tuban komediya, satira, epigramma kabi turlarga bo'linadi. Jon Milton yashagan davrda G'arbiy Yevropa mamlakatlarida XVII asrning o'rtalariga kelib bir muncha susayish kuzatila boshlandi [8, b.163].

Niderlandiya, Angliyadagi inqiloblar feodal tizimining yemirilishiga ta'sir ko'rsatdi. Dunyodagi eng katta kashfiyotlar yirik ixtirolar yangi savdo

bozorlarining ochilishi, inson faoliyatida keng imkoniyatlar yaratdi. Bu oqim uygʻonish davri adabiy anʼanalarini davom ettirdi. Lopi Divega yaratgan komediyalarda barokko ijodkorlarining ruhiy tushkinlikdagi asarlariga xushchaqchaq hayotni qarshi qoʻyadi. Shuningdek, Sharl, Soril ham Fransuzlarning haqqoniy va kulguli hayot tasvirlangan romanlarida oʻz quvonchlarini ifodalaydilar. Mamlakatdagi mavjud ijodiy jarayonlar maʼlum qoidaga boʻy sundiriladi. Kardinal Risheli tashkil qilingan akademiya orqali adabiyotni oʻz nazoratiga oladi. Ana shu yoʻnalishda qonundan chetga chiqish, sanʼatda bosh boshdoqlikka olib boriladigan yoʻllarga kiriladi. Bu oqimga kirmagan Koʻrnil va “Sid” tragediyasi katta qarshilikka uchraydi [19, b.102].

Jon Milton Kembrij universitetiga oʻqishga qabul qilingach, feodal reaksiyasi tarafdorlari va monarxiya tuzumiga qarshi kurashadi. U siyosiy masalada universitet oʻqituvchilari bilan tortishib qoladi va oʻqishdan chetlatiladi. Jon Milton 1625 yilda Mary Powellga uylanadi hamda undan 4 nafar farzandi toʻgʻiladi. Birinchi farzandi Anne 7 iyulda 1646 yil toʻgʻiladi, ikkinchi farzandi Mary ismli qizaloq boʻlib u 25 Oktyabr 1648 yilda toʻgilgan, 3-farzandi esa John 16 Mart 1651 – iyun oyi da toʻgʻilgan boʻlib, 1652 yilda kasallik tufayli vafot etadi, 4-farzandi Deborah 2 May 1652. Deborah farzandi toʻgilgandan soʻng 1652 yilda Jon Miltonning suyakli yori Mary Powell vafot etadi [1, b.98]

Milton soʻngra oʻqishni aʼlo baholar bilan tugatib magistr diplomini oladi va 1638 yilda Evropa boʻylab sayohatga chiqadi. Frantsiya va Italiyada yashab uning adabiyoti bilan tanishadi. (1642).

Jon Milʼton Londonda, oʻziga toʻq notarius oilasida tavallud topdi. Oʻz davrining ilgʻor maktablarida tahsil oldi, 16 yoshida Kembrij universitetiga oʻqishga kirib, sanʼat magistri darajasiga erishdi. Ingliz adibi yetti yillik oliy taʼlim nihoyasida magistrlikka yetishgach ham bir necha yil mobaynida mustaqil tahsil oldi, diniy-dunyoviy bilimini oshirdi, falsafani, mumtoz adabiyot tarixini, tarix fanini oʻqidi, qator xorij tillarini mukammal oʻzlashtirdi. Ayniqsa, uning lotin, frantsuz va italʼyan tillarini mohirona egallagani kelgusida Kromvelʼ hukmronligi kezlarida xizmatga olinishida qoʻl keldi [17, b.29].

O'qishga, bilim olishga, xorij tillarini mukammal egallashga va dunyo kezishga bo'lgan imkoniyatlarni taqqoslash qiyin albatta, lekin o'xshatib bo'lmaz sharoitlar o'rtasidagi o'xshashlik shunda ediki, Jon Mil'ton o'ziga qadar bo'lgan ingliz adabiyoti tarixida birorta shoir-yozuvchi erisholmagan, ya'ni shoirlik va olimlik maqomlariga ko'tarilgan. U ko'plab shaharlarga, dunyoning turli mamlakatlariga sayohat qiladi. U mamlakatlarning siyosati, adabiyoti, va xalqi bilan tanishadi va o'rganadi [9, b.16].

Jon Mil'ton xorij safaridan qaytganida mamlakat osmonini ingliz inqilobi bulutlari qoplagan edi. Bilimli, dunyo ko'rgan, tevarak-atrofida yuz berayotgan voqea-hodisalar haqida shaxsiy nuqtai nazari shakllangan ziyoli inson sifatida u bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan chetda qolishi mumkin emasdi. U o'zining qalami, fikrlari, qarashlari bilan inqilobning faol a'zolaridan biriga aylandi. Inson, jamiyat va davlat haqidagi, ana shu uch sub'ekt o'rtasidagi adolatli munosabatlarni qaror toptirish haqidagi haroratli publitsistik chiqishlari bilan jamoatchilik nazariga tushdi. Yoshlik chog'laridan boshlangan badiiy ijod o'rnini matbuotdagi dolzarb mavzuda chiqishlar egalladi.

Mutaxassislarning yozishlariga qaraganda, XVII asrga qadar ingliz adabiyoti tarixida birorta shoir yoki adib Mil'ton darajasida adabiyotshunoslik ilmini egallagan emas. Talabalik kezlari danoq uning nomi shoir va dramaturg sifatida tanilgan. Mana shunday ijodkor xorijdan qaytib inqilobiy jarayonlarga jadal aralashib ketgan.

Milton puritanlar safida qalam surar ekan, qirollik tuzumidagi mutlaq hukmronlik — yakka hokimlik adolatli jamiyat barpo etilishiga yo'l bermaydi deb hisoblaydi, shu qarashlari bilan u qirol Karl Styuartning taxtdan chetlatilishi, o'rniga respublika tizimi qaror topishi zarurligi g'oyasini olg'a surgan ko'plab maqolalar e'lon qiladi. Uning publitsistik chiqishlari, serzarda va o'tli so'zlari mo'ljalga tegmay qolmasdi. Matbuotda e'lon qilingan achchiq tanqidlari amalga oshib, lordlar palatasi tarkibidan yepiskoplar chiqarib yuborilgan [19, b.100].

Angliya parlamenti 1643 yilning 14 iyunida kitob nashr etishni nazorat ostiga olish haqida qonun qabul qiladi, oradan bir yarim yil o'tar-o'tmas, aniqrog'i,

1644 yilning noyabr` oyida matbuotda J.Mil`tonning «Areopagitika» asari chop etiladi. Asar umuman fuqaro erkinligi mavzusida bo`lib, uch kismdan iborat: birinchisi — nikoh, ikkinchisi — bolalar tarbiyasi va uchinchisi — matbuot erkinligi mavzusiga bag`ishlangan [5, b.15].

Muallifning mazkur asar uchun tanlagan uslubi, ohangi kutilmaganda jamoatchilik e`tiborini tortadi. Buni Mil`tonning o`zi ochiq tan oladi. U bayon etilayotgan mulohaza va qarashlari haqidagi tanqidiy nuqtai nazarini yorqin ifoda etish uchun miloddan burun yashagan Isokrat (miloddan av. 436-338 yillar)uslubiga xos ehtirolarga boy ohang qo`l kelganini ta`kidlaydi. Isokrat esa o`z davrida ayni shunday uslubi — otashin notiqligi bilan katta nufuzga ega bo`lgan, hatto Suqrotdek alloma nazariga tushgan edi.

Milton bamisoli «Areopagitika» minbaridan turib, parlament a`zolariga qarata otashin nutq irod etayotgandek ohangda so`zlaydi. Mil`ton parlament a`zolarini adolatga chaqiradi. «Men zarracha ikkilanmay- netmay shunga amindirmanki, sizlar «birorta ham kitob, risola yoxud varaqa avvaldan ko`rib chiqilmasdan va tasdiqdan o`tmay turib chop qilish man etilishi» ta`kidlangan Qonunni yana bir karra ko`zdan kechirganingizdan keyin o`zingizga oliy darajada xos bo`lgan adolatga muhabbat tuyg`ularingiz jo`sh urajagiga ishonaman»[13, b.19].

Miltonning fikricha, mazkur Qonundan ko`zda tutilgan asosiy maqsad — haqoratlar, dag`dag`alar va axloqsizliklar targ`ib qilingan asarlar paydo bo`lishiga yo`l qo`ymaslik uchun xizmat qilmaydi, aksincha, u ilmu ma`rifat yo`lini to`sadi va adolat ovozini o`chiradi.

«Inkor qilmayman, — deb davom etadi Mil`ton, — kitoblarning odob-axloqi xuddi odamlarda bo`lgani kabi cherkov va davlat tomonidan qattiq g`amxo`rlik ila nazorat — senzura ostiga olinmog`i kerak va shundan kelib chiqqan holda ular xuddi jinoyatchilar qatorida avaxtaga tashlanmog`i, surgunu badarg`a qilinmog`i kerak: chunki kitobni jonsiz buyum deb isoblamaslik zarur, zero kitob uni yaratgan dahoning salohiyatiga teng ravishda hayotiy kuch-qudratga egadir...» (Bu so`zlar mavlono Jaloliddin Rumiyning «So`z insonning qiymati qadar qadrlidir» degan

lutfini eslatadi, Aleksandr Genis boshqacharoq aytadi: «Biz yozuvchi asarini uning o'zidan ko'ra muhimroq deb hisoblaymiz, chunki u umridagi eng yaxshi daqiqalarni asariga bag'ishlagan».)

Ko'rinadiki, qarashlarini yengil va beozor kinoyalar bilan bayon qila boshlagan adib asta-sekin achchiq piching yo'liga o'tadi. Piching zaharxanda tusini oladi: «Kitoblar afsonaviy ajdahoning tishlari singari hayotbaxsh va ko'payuvchilik qudratiga ega ekanliklarini bilaman, mabodo ular yerga ekilsa bormi, ulardan jangchilar o'sib chiqishlari muqarrardir».

«Achchiqlashayotgan» so'zlar va ohang o'rnini vazmin mushohada egallaydi: «Boshqa tomondan, mulohazalarda g'oyatda ehtiyotkor bo'lmoqlik kerak, chunki yaxshi kitobhni o'ldirish qariyb insonni o'ldirish bilan teng; insonning joniga qasd qilgan odam ongli mavjudotni, tangri taolo tajallisini o'ldirgan isoblanadi; zero yaxshi kitobni mahv etayotgan odam idrokni o'ldiradi, ilohiy mash'alani so'ndiradi»

Milton London yaqinidagi otasining mulkiga borib bir necha yil adabiyot bilan shug'ullanadi. Milton dastlab publitist sifatida oz faoliyatini boshlab independentlar bilan aloqasini mustahkamlaydi. 40-50 yillarda Milton respublika uchun tinmay xizmat qiladi. Ish og'irligidan uning ko'zi ojizlanib qoladi.

Milton asarlarini ingliz, ital`yan va lotin tillarida yozgan. Ilk asarlari: «Shekspirga» she'ri (1630), «Xushchaqchaq» va «Xayolchan» deb nomlangan qo'shaloq asari (1632), «Qomus» dramatik dostoni (1634), «Lyusidas» marsiyasi (1632). Mil`ton 1638—39 y.larda Frantsiya va Italiyaga sayohat qilgan. 1640 y.dan Angliya burjua inqilobi g'oyalarini qo'llab-quvvatlagan. «Areopagitika» (1644) risolasida matbuot erkinligini yoqlab chiqqan. 1649—52 y.larda burjua inqilobi arbobi O.Karomvelning xalqaro davlat yozishmalarini olib borgan. «Sanamkush» (1649), «Ingliz xalqini ximoya qilish» (1650, 1654) va b. asarlarida xalqning mustabid hukmdorlarni yo'q qilish huquqi borligini ta'kidlaydi. Styuartlar sulolasi qayta tiklangandan keyin mashaqqatli hayotga giriftor bo'lgan shoir o'zining mashhur asarlari — «Yo'qotilgan jannat» (1667), «Topilgan jannat» (1671) dostonlarini yaratadi.

Dostonlar mazmuni «Injil»dan olingan bo'lsada, diniy mazmun orqali davrning dolzarb masalalarini — xalq ommasining monarxiya va zulmning barcha shakllariga qarshi noroziligini aks ettirgan. So'nggi asari — «Isyonkor Samson» tragediyasida Angliya burjua inqilobi va Mil'ton dunyoqarashiga xos bo'lgan qarama-qarshiliklar o'z ifodasini topgan.

Milton o'zining «Komus» (1637 y.)nomli lirik p'esasi asosida his-tuyg'u bilan aql-idrok o'rtasida uyg'unlik bo'lishi kerakligi haqidagi fikr yotadi. O'rmon va chakalakzorlar hukmroni kuchli hirs va engiltaklik timsoli Komus o'rmonzorda adashib qolgan sof va gunohsiz qizni yo'ldan ozdirmoqchi bo'ladi. Komus qasrida na uning o'zi,va na yarim odam, yarim hoyvon to'dalarining hiyla – nayranglari qizning irodasini buka olmaydi. Qizning akalari uni Komus qo'lidan qutqarib oladilar [16, b.49].

Bu lirik p'esada yosh Miltonning shoirlik istedodi ajoyib o'rmonzor tasvirida ham, qizning jasurona harakati tasvirida ham ochiq ko'rinadi. Milton ijodining yangi bosqichi XVII asrning 40-yillaridagi siyosiy voqealar bilan bog'liq ravishda rivojlanadi. U o'zining nikoh haqidagi maqolasida Uyg'onish davri gumanistlari yoqlagan tenglik g'oyalarini himoya qiladi.

Milton ijodining cho'qqisi bu uning «Yo'qotilgan jannat» asaridir. Asarni yaratishda «Tavrot» rivoyatlaridan foydalanadi. Poema 12 qo'shiq (kitob) dan iborat Kitobning boshida xudoga qarshi isyon ko'targan farishtalarning engilishi ko'rsatiladi. Qo'zg'olonchilar boshida erkinlikka intiluvchi shayton turadi. Poemada tasvirlangan ikkinchi voqea Adam bilan Evaning gunohi haqidagi afsonaga oidir. Miltonning ikkinchit poemasi «Topilgan jannat» (1666 y.) to'rt kitobdan iborat bo'lib, poemada shayton bilan Isus o'rtasidagi kurash aks ettirilgan xristian afsonasi hikoya qilinadi.»Yo'qotilgan jannat» poemasida gunoh qilish tasvirlansa, Topilgan jannat« asarida esa gunohni yuvish tasvirlanadi. «Samson-kurashchi» (1667 y.) asarida Milton raqiblarga nisbatan nafrat ruhi, kurash va qasos olish ishtiyoqi bilan yashagan aktiv kurashchi obrazini yaratadi.



Asar voqeasi Filistimlyan shahrida yuz beradi. Dushmanlari uchun katta xavf hisoblangan Samson makr-hiylaga uchib o'z sirlarini aytib qo'yadi. Bundan foydalanib dushmanlari uni zindonga tashlashadi. Otasi uni pul to'lab qullikdan qutqarmoqchi bo'ladi, lekin Samson bu yo'lni o'ziga or bilib ko'nmaydi. Azob – uqibatlardan ko'zi ko'r bo'lib qolgan Samsonni dushmanlari kuchini sinash uchun uni teatrga olib keladilar. Ko'r Samson og'ir narsalarni ko'tarib hammani qoil qoldiradi. So'ngra ularga yanada qiziq tamosha ko'rsatish maqsadida katta binoning ikki ustunini bor kuchi bilan silkitib ularni sug'irib tashlaydi. Gumbaz o'sha erda o'tirgan knyazlar, jretslar maslahatchilar, dohiylar ustiga ag'darilib tushadi. Samsonning o'zi ham halok bo'ladi, dushmanni ham mahv etadi. Lekin u o'z o'limi bilan xalqiga g'alaba keltiradi.

Tragediyaning boshdi Samson azob ichida yashaganligi tasvirlangan. Poemada voqealar chuqur va dadil xulosalar chiqarishga ko'tarilmasa ham restavratsiya davrida chuqur mulohazalarga boyligi bilan ajralib turadi. Ko'lning ostini Dante "Dit" deb ataydi, unda na shamol, na olov, na harakat bor. Hamma joy shayton Lyutsiferning olti qanoti harakatidan muzlab qolgan, u joyda osmondan quvilib, yerga yiqilishida "A'rof" tog'i konusini hosil qilgan Lyutsifer-Iblis turadi. Uning uch og'zida uch xoin "Iuda", "Brut", "Kassiy" (Brut va Kassiy Rimda yashagan lashkarboshilar) jazo tortadilar. Dante yaratgan "Iblis" obrazi inson tushunchasidagi eng salbiy, jirkanch xususiyatlarning majoziy ramzi sifatida gavdalanadi. Ma'lum darajada ijobiy xususiyatlarga ega bo'lgan Miltonning (1608-1674) "Yo'qotilgan jannat" idagi isyonkor iblis, Gyotening (1749-1832) "Faust" idagi faylasuf Mefistofel, Lermontovning "Demon" kabi jahon adabiyoti namunalarida yaratilgan [20, b.89].

Shayton obrazlaridan Dantening Iblisi ajralib turadi. Dantening ta'biricha, Iblis osmondan yiqilish jarayonida yer qa'rini shunday yorib kirganki, undan hosil bo'lgan jahannamda to'qqiz qavat do'zax joylashgan, tanasi esa yer kurrasining narigi tomonidan to'qqiz qavat "A'rof" tog'ini bo'rttirib chiqargan. Dante "A'rof"

da hali u davrda hech kimning xayoliga kelmagan Janubiy yarim sharning g'arbidagi yulduzli osmonni tasvirlaydi.

Do'zaxga zid o'laroq jannatda doimo harakat hukm suradi. Jannat osmonlarining hammasida yorug'lik, nur, ruhiy kamolot hukmronlik qiladi. "Jannat" ning so'nggi uch bobi to'qqizinchi doira—Empireyning tasviriga bag'ishlangan. Empireydagi farishtalar koinotni harakatga keltiradilar. Endi Beatriche shoirni avliyo Bernardga topshirib, Bibi Maryam taxti oldida Momohavo yoniga o'tiradi. "Yangi hayot" da tasvirlangan ishq ma'budi "Amor" – ishq, quyosh va o'zga nur manbalarini harakatga keltiradi.

Dantening tasavvurida u umuminsoniy axloq normalari-real borliqni ma'lum doirada saqlab turadi. Shunday qilib, ilohiy qudrat ramzi bo'lgan Amor, Beatrichega bo'lgan muhabbat, shoirning umum bashariyat sirini anglab yetishiga yordam beradi. Shoir yaratgan buyuk Epopeyani Golenishev-Kutuzov: "Dante antik mualliflar an'anasini tiklab, koinot sirlarini ochishga erishdi. Jahon adabiyoti rivojining yangi yo'llarini ochib beruvchi Dante dostonining inqilobiy mohiyati ham ana shundadir" deb to'g'ri baholaydi.

Jon Milton (1608-1674) Artur mavzusida deyarli bir epik doston yozdi; garchi u o'shaning o'rniga "Yo'qotilgan jannat" nomli epik dostonini bitgan bo'lsa-da va doston ingliz kishisining xristian dini haqidagi eng buyuk bayonoti esa-da, shaklan cherkov belgilab bergan me'yorlarga bo'ysunadi. Olimlar dostonning maqsadi va matniga keskin yotfikrlilikka eltuvchi vosita sifatida qarashadi. Milton o'z hayoti davomida troitsa va gunohni yuvishga qarshi bir xususiy risola ham yozadi; biz uning Ota Xudoning rahmatga asoslangan qudrati va Saxiy O'g'il haqidagi rivoyat haqidagi bir qator mutaxassislarning asarlarini o'qishini, uning najot haqidagi qarashlari paradigmasi haqidagi qat'iyatini aynan mana shu manzara orqali tushunishimiz mumkin.

Nabil Matar aytganiday, Miltonning nazarida "arablar Angliya uchun nafaqat harbiy sohadagi qahramonliklari, qolaversa, yaratuvchan tasavvuri bilan ham namuna bo'la oladi"

1644 yilning noyabr oyida matbuotda J.Mil`tonning «Areopagitika» asari chop etiladi. Muallifning mazkur asar uchun tanlagan uslubi, ohangi kutilmaganda jamoatchilik e'tiborini tortadi. Buni Mil`tonning o'zi ochiq tan oladi. U bayon etilayotgan mulohaza va qarashlari haqidagi tanqidiy nuqtai nazarini yorqin ifoda etish uchun miloddan burun yashagan Isokrat (miloddan av. 436-338 yillar)uslubiga xos ehtirolarga boy ohang qo'l kelganini ta'kidlaydi [2, b.35].

Isokrat esa o'z davrida ayni shunday uslubi — otashin notiqligi bilan katta nufuzga ega bo'lgan, hatto Suqrotdek alloma nazariga tushgan edi. Asarning nomlanishi ham Milton tanlagan uslubdan kelib chiqqanini sezish qiyin emas, zero, Areopag — «Areya tepaligi» Afinada, mashhur Akropolning g'arbidagi tepalik nomi bo'lib, u yerda dastavval favqulodda holatlar uchun, keyinchalik esa hayot va o'lim, din va umumiy senzura doir masalalar ko'riladigan sud mahkamasi joylashgan. Mil`ton bamisoli «Areopagitika» minbaridan turib, parlament a'zolariga qarata otashin nutq irod etayotgandek ohangda so'zlaydi.

Milton parlament a'zolarini adolatga chaqiradi. «Men zarracha ikkilanmay-netmay shunga amindirmanki, sizlar «birorta ham kitob, risola yoxud varaqa avvaldan ko'rib chiqilmasdan va tasdiqdan o'tmay turib chop qilish man etilishi» ta'kidlangan Qonunni yana bir karra ko'zdan kechirganingizdan keyin o'zingizga oliy darajada xos bo'lgan adolatga muhabbat tuyg'ularingiz jo'sh urajagiga ishonaman».

Adib qalamiga mansub «Qirol va hukmronning huquqi va majburiyatlari» deb nomlangan asari hamda «Ashaddiy butparast» pamfletining «kasofati» o'laroq qirol Karl Styuart sudlangan va namoyishkorona qatl etilgan. Mana shunday otashin qarashlari, nuqtai nazarlari bilan J.Mil`ton lord-general (barcha harbiy kuchlar bosh ko'mondoni) Kromvel` siyosati uchun ayni muddao edi. Nafaqat Miltonning, balki yengilmas sarkarda, temir irodali va shijoatli rahbar sifatida Oliver Kromvel xalqning, qolaversa parlamentning ishonchi, e'tirofini qozonadi.

Mil`ton shaxsan Kromvelga, 1649 yil martida e`lon qilingan Kromvel` boshchiligidagi respublikachilar hukumatiga ishongan.

Shoirning publitsistik qalamini charxlagan, so`zlariga otashin ruh baxsh etgan kuch-qudrat ham ana shu ishonchda edi. Milton ijodining ilk bosqichlari XVII asrning 20-30 yillarini o`z icjiga oladi. Milton universitetda o`qigan vaqtlaridanoq ya`ni 1626-1632 yillardanoq yoza boshlaydi ko`plab sherlar. Lekin bu davrlardagi sherlari hali zaif, ularda umumlashtiruvchi fikrlar bo`lmasa ham, lekin shoirning feodal katolik reaksiyasiga qarshi chiqishi ochiq oydin namoyon bo`la boshlaydi.

Milton ijodining yangi bosqichi XVII asrning 40-yillardagi siyosiy voqealar bilan bog`liq ravishda rivojlanadi. Bu davrda u publitist yozuvchi sifatida feodal absolyut reaksiyasi va unung asosiy tayanchi episkop cherkoviga qarshi keskin maqolalar bilan chiqadi. 50- yillarning ikkinchi yarmida Milton siyosiy kurashdan vaqtincha chetlashadi. Bu yillada Xristian ta`limoti bilan shug`ullanadi. Milton ijodining so`nggi bosqichi 60-70 yillar styuartlar restavratsiyasi davriga to`g`ri keladi.

Avvalambor ushbu poema Jon Milton Ijodining so`nggi bosqichi davrlariga to`g`ri kelib, bu davrda ko`zi ojiz Milton daxshatli restavratsiya yillariga qaramay respublikachilar g`oyalariga sodiq bo`lib qoladi. Milton ijodining so`nggi etapi namunasi bolib qolgan yo`qotilgan jannat poemasida shoirning shu davrdagi kayfiyatlari o`z ifodasini topgan. "Yo`qotilgan jannat" nomli epik dostonini bitgan bo`lsa-da va doston ingliz kishisining xristian dini haqidagi eng buyuk bayonoti esa-da, shaklan cherkov belgilab bergan me'yorlarga bo`ysunadi.

Olimlar dostonning maqsadi va matniga keskin yotfikrlilikka eltuvchi vosita sifatida qarashadi. Milton o`z hayoti davomida troitsa va gunohni yuvishga qarshi bir xususiy risola ham yozadi.

Biz uning Ota Xudoning rahmatga asoslangan qudrati va Saxiy O`g`il haqidagi rivoyat haqidagi bir qator mutaxassislarning asarlarini o`qishini, uning najot haqidagi qarashlari paradigmasi haqidagi qat`iyatini aynan mana shu manzara

orqali tushunishimiz mumkin. Nabil Matar aytganiday, Miltonning nazarida "arablar Angliya uchun nafaqat harbiy sohadagi qahramonliklari, qolaversa, yaratuvchan tasavvuri bilan ham namuna bo'la oladi".

Milton "yo'qotilgan jannat" (1658-1667\)) epic poimasining sujitini yaratishda tavrot rivoyalaridan foydalanadi. Poima o'n ikki qo'shiqdan iborat bo'lgan bo'lib kitobning bosh qisimlarida xudoga qarshi isyon kutargan farishtalarning yengilishi ko'rsatiladi. Qo'zg'alonchilar tepasida erkinlikka intiluvchi shayton turadi. Biroq jahannamga tashlangan iblis va uning yordamchilari yengilganlarini tan olmaydi, xudoning qudratiga arshi yangi kurashga tayyorlanadilar.

Buning ma'nosi shundan iboratki iblis va uning yordamchilari o'sha davrning isyonchilari bo'lib qirolga qarshi chiqishi tasvirlanadi. Poimaning asosiy tig'i tantan qilgan reaksiyaga qarshi qaratiladi, undagi ko'p manzaralar o'sha davrdagi siyosiy voqealar bilan bog'lanadi.

Masalan xudo bilan shayton o'rtasidagi kurash grajdanlar urushi paytida qirol bilan parlament o'rtasidagi kurashni eslatadi. Isyonkor shaytonning "osmon hukumroni" xudoga qarshi bosh ko'tarishi respublikachi qo'shinlarning er hoqoni zolim qirolga qarshi isyonini eslatadi. Ushbu poemaning yozilishidan ham asosiy maqsad respublikachilarni yuqorilash va ularni oqlash edi.

Poemada tasvirlangan ikkinchi voqea-Adam bilan Evaning gunohi haqidagi afsonaga oitdir. Shayton jannatda yashayotgan birinchi insonlar – Adam (odamato) va Eva (momohavo)ni aldab ularni yo'ldan ozdirmoqchi bo'ladi. Xudo shaytonning yovuz niyati haqida Adam va Evani ogohlantiradi. Arxangel Rafail insonlarga shaytonning isyoni va uning yingilib do'zaxga tashlangani haqida aytib odamlarning mo'min-qobil bo'lishga undaydi. Biroq shayton o'z qiyofasini o'zgartirib jannatga kiradi va Eva aldashga erishadi.

U yeyish man qilingan yaxshilik va yomonlikni ajratadigan daraxt mevasini yeydi. Adam ham Evaga bo'lgan hurmati yuzasidan undan tatib ko'radi. Shunday

qilib xudoning qudratiga putur yetkaziladi, Adam va Eva esa bu gunohlari uchun jannatdan quviladilar. Adam va Eva oldida endi osoyishta jannat hayoti emas mashaqqatli turmush, og'ir mehnat turadigi, bu oddiy kishilar faoliti boshlanishi va insoniyat tarixi boshlanishi edi.

Ingiliz burjua revolyutsiyasining mag'lubiyati 40-50 yillardagi sinfiy kurashlar ta'siri natijasida Milton jamiyat taraqqiyoti mashaqqatlidir, u axloqiy kamolotga erishish, kuch to'plash orqali oldinga qarab boradi, degan xulosaga keldi. Shuning uchun ushbu poema yuqoridagi mazmunda yozilgan. Beliniskiy Miltonning poemasini "avtoritetga qarshi isyonning apofeozi" deb atadi. Asarning revolyutsion ruhi mag'rur va isyonkor, mag'lubiyatga uchragan, lekin xudoga qarshi kurashdan qaytmagan shayton obrazida ko'rinadi. Reaksiya tantana qilgan yillarda shoir kishilarni restavratsiyaga qarshi kurashga qo'zg'atish emas, balki ma'naviy tomondan kuch to'plash, axloqiy kamolotga erishishga chaqiradi.

Milton obyektiv ravishda ommadagi revolyutsion kayfiyatni aks ettirgan ajoib poima yaratadi. Hukumron bo'lish uchun isyon ko'targan va yengilib jahannamga tashlangan va azob ichida qolgan shayton kishidan nafrat emas balki xayrihohlik uyg'otadi. Poimadagi qahramonlardan adam jasurligi, dono va mardligi bilan jonli kishilarga yaqindir. U "gunoh" qilgan Evadan uzoqlashmaydi, balki o'rtyadagi ittifoqni mustahkamlashga harakat qiladi. Adam shaytonga aldanganligidan emas balki Evaga bo'lgan sadoqati tufayli "gunoh" qiladi.

Aql-idrokning tantanasiga ishongan shoir o'z orzularini noaniq va alihgorik shaklida bayon qilsa ham, lekin feodal katolik reaksiyasi kishini zaif, irodasiz, taqdirni qo'g'irchog'i deb ko'rsatayotgan bir vaqtda, u inson kuchiga, irodasiga yuqori baho beradi. Bu jihatdan Adam obrazi xarakterlidir. Shoir egoist shaytonni qoralasa insonparvar Adamni maqtaydi. Milton Adam bilan Eva o'rtasidagi sevgini bayon qilish orqali baxtli va vafodor oilani tasvirleydi. Shoir ular o'rtasidagi munosabatni "yuqoridan belgilangan" nikoh deb ko'rsatsa ham, lekin oilaviy baxtni kuylash puritan ruhidagi pand nasihatlardan farq qiladi. Shu bilan bir qatorda Adam obrazi tasvirida puritanchilik tasiri ham ko'rinadi. Farishta oldida

uning irodasi bo'shashadi, "yuqoridan" bo'ladigan har qanday haqsizlikka bo'yin egishga tayyor turadi.

Milton qarashidagi badiiy ziddiyatlar diniy-puritanchilik tasiri ostida yuzaga kelib, uning qahramonini chegaralab, kuchsi qilib qo'yadi. Lekin bularga qaramay, "Yo'qotilgan Jannat" poemasi 40-50-yillardagi siyosiy voqealar umumlashtirib tasvirlangan monarhiya tuzumining qayta tiklanishiga qarshi qaratilgan ajoiib poemadir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Alimuhamedov N. "Antik adabiyot tarixi". -T.: -"O'qituvchi". 1975. -415b.
2. Azizov Q. Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. – T.: - "O'qituvchi". 1979. – 467 b.
3. Azizov Q. Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi (XVIII-XX asrlar). – T.: - "O'qituvchi".1987. – 418 b.
4. Boynazarov F. Jahon adabiyoti. –T.: -"Musiqqa". 2006. – 159 b.
5. Boboyeva Salima Ro'ziyeva. "O'zbek va AQSh adabiyatida bolalikning badiiy talqini" Toshkent-2012 y.
6. Kafka F. Jarayon. - Alisher Navoiy nomidagi nashriyot. -Toshkent. 2006.- 247 b.

